

РЕЗЮМЕ

Қорақалпоқ халқ достони «Жаханшо»нинг (Қурбанбой жиров) идеяси, тарбиявий хусусияти ва эпоснинг босмада чоп этилишидаги муаммолари, образларнинг хусусиятлари, сюжет ва композицион жиҳатлари, қаҳрамоннинг туғилишидаги ўзига хос хусусиятлар, илм ва ҳунар эгаллаш йўлида сафарбар бўлиш мотивлари киёсий талқин этилади, авторлик сифати юзага чиқарилади.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются: основная идея, сюжет, композиционное построение и издание каракалпакского народного эпоса «Жаханша» (в интерпретации Курбанбая-жырау). Делается типологический анализ особенностей образов героев, мотивов их странствований с целью приобретения знаний ремесла, показаны также индивидуально-авторские особенности в создании эпоса.

SUMMARY

The article deals with the main idea, plot, composition and publication of the Karakalpak folk epos «Zhakhansha» (in interpretation of Kurbanbay –jirau). The author of the article did the typological analysis of the heroes' images, motives of their wandering with the purpose of getting knowledge and handicraft, and he also showed the peculiarities of the author's individual style in the creation of the epos.

JAMOL KAMOL SHE'RLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

D.Nazarova – *assistent o'qituvchi*

Buxoro tibbiyot instituti

Tayanch so'zlar: lirik qahramon, ramziy timsollar, talmeh, tashbeh.

Ключевые слова: лирический герой, символические образы, просветительские идеи, анализ, поэтическое мастерство.

Key words: lyric hero, symbolic images, enlightening ideas, analysis, poetic skill.

She'r shoirning o'z shaxsiy ko'ngil xushi, ko'ziga manzur ko'ringan gulmi, bulbulmi bag'ishlagan zavqdan emas, balki xalqining dard-u xayollarining ifodasiga aylangandagina, u bilan hamdard bo'lgandagina ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Shoirning talanti, bilimdonligi, ichki dunyosining boyligi uning hayotidagi narsa va voqealarga munosabatidan chiqarilgan xulosalarida bilinadi. Jamolning «Hamlet», «Futbol», «Faylasuf bilan suhbat», «Qo'g'irchoqlar» kabi she'rlarida aytilgan falsafiy, teran fikrlarni biror donishmandning kitobida uchratmaysiz. Bu Jamolning dardi, Jamolning dunyoqarashi, Jamolning falsafasi. Falsafa bu bir narsaning nimaligini aytish emas, uning mohiyatini ochish, dunyo va kishilarga yangicha munosabat bildira olish. Bu Jamol ijodiga xos afzallikdir [1].

Shom edi, Birovni etdilar dafn,
Zarang sovuq yerning bag'rini o'yib.
Qora lashkar kabi bosib kelar tun
Qoldi yolg'iz qabr dardla qorayib.
Tun og'ib, yulduzlar yosh to'kib milt-milt
Oy nuri sinarkan mozar toshida
Soyaday sudralib keldida bir it
O'ksib uvvos soldi qabr boshida...

Bu vafo haqida nasihat emas. Bu she'r! Bu ijod! Ijodiy mashaqqat mevasi. Kishi qalbini larzaga solib, bir umr yodda qoladigan she'r. Badiiy tafakkur tushunchasi – serma'no, serqatlam, serqirra. U san'atkorning fikrlash tarzida mazmun topgan falsafiy-axloqiy, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlarning muayyan hosilasidir. Jamol Kamol badiiy – estetik tafakkuridagi yetuklik, teranlik mustaqillik sharofatidir, hurfikrlilikdandir. Jamol Kamol iste'dodli shoir. Buni unung go'zal va mazmuni teran she'rlari isbotlaydi [1].

Xususan, el-yurt tarixi, qismati, dardini kuylash shoir uchun farz va qarz hisoblanadi. Vatan haqida yozmagan birorta ham shoir bo'lmasa kerak. Lekin Jamol Kamolning bu mavzudagi bitiklari, zamondoshlari nazmini takrorlamaydi. Mana bu misralar ham fikrimizni tasdiqlaydi:

To'rt buyuk ufqingdan nur tushayotir,
To'rt buyuk ufqingda yulduz javloni.
Ko'zlari sevinchdan yarqirayotir,
Qanot bog'layotir dilbanding joni.
Otamning otasi shu buyuk tuproq,
Onamning onasi shu buyuk tuproq.
Bir jigarporangman, qutlug' vatansan
Sharaf ostonsi, ey buyuk tuproq.

Shoir vatanga bo'lgan muhabbatini o'zi tug'ulib o'sgan zaminga bo'lgan sevgi izhorini «Otamning otasi, ey buyuk tuproq», «Onamning onasi, ey buyuk tuproq»deya talqin qilganida kishi vujudini allaqanday hislar chulg'ab oladi. Shoir tashbehlardan juda o'rinli foydalana olganiga shakshubha yo'q.

Jangu jadallarda ko'p qoning oqdi,
Yosh edim bo'lmadim g'aminga g'amdosh.
Bugun oy ustida yulduzing boqdi,
Bag'rimga bag'rini joyladi quyosh.

deb e'tirof etganida shoir qalbidan kechgan kechinmalarni his qilish qiyin emas. Shoirning «O'zbekiston tuni»she'riga e'tibor qaratadigan bo'lsak undagi chizgilar kishi xayolini band qilib o'ylashga mushohada qilish chorlaydi. Agar umidlarim qolsa beqanot,

Agar qalbimni qurshasa sukut,
Agar ado bo'sa ruhimda sabot;
Borlig'im band etib yashash ozori,
Shu zamon shafqat-la boshimga kelib,
«Asr bilan vidolashuv»
Qadimni suyamoq also shart emas,
O'zbekiston tuni boshing uzra deb-
Mening qulog'imga shivirlangiz, bas.

Shoir ruhiy holatini, eng og'ir damlarida ham unga yurtining tabiati, go'zali unga quvvat bag'ishlashini ta'kidlab o'tadi. Ana sizga o'ziga xoslik ana sizga go'zal tashbeh:

Sokin bir darchada titraydi chiroq,
Onajon bag'rida do'mboq kenjasi.
Shirin tushlar ko'rib tamshanar shu choq,
O'zbek tuprog'ining go'zal xojasi...

Bu she'rni hayajonsiz o'qishning iloji yo'q balki Jamol Kamol ijodining o'zi xosligi ham shundadir.

Bu tunlar jamolin bir ko'rgan inson
Yurtiga ketolmay qolsa ne ajab.

Ushbu satrlarni o'zi ham Jamol Kamol she'rlarining boshqalarga o'xshamaydigan jihatlarini o'zida aks etadi. Shoir bu she'rda talmeh san'atidanam unumli foydalanadi.

Hayot solar ekan ruhiga junun,
Dardini tunlarga so'ylamish Layli.
Baxtini tunlarda izlamish Majnun,
Rohatda mudraydi xazina tuproq.

She'rda «Mag'rur chiqib borar sulton Ulug'bek», «Alisher qalbining shirin javloni...», «Bechora Furqatning haqir ko'z yoshi» kabi talmehning go'zal sifatlarini ko'rishimiz mumkin.

Jamol Kamolning vatan haqida she'rlarining mazmun mundariyasi keng. J.Kamol ozod, dilbar Vatanni bir farzand yanglig' sidqidildan, ko'nglini osmonlarday keng ochib kuylaydi. Xoksor, mehnatkash elini, ulug' Vatani o'ziga xos, hammaga tushunarli qilib tarannum etadi. Jamol Kamol bir tarixiy she'rning ham muallifidir. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi mustaqil deb e'lon qilingandan buyon jahonning 121 mamlakati uni tan oldi. Oltmishdan ortiq mamlakat esa biz bilan vakolatxona darajasida bitim tuzdi. Ayni chog'da mustaqil O'zbekistonimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo ham etib qabul qilindi. Xuddi ana shu tarixiy kunga shoir J.Kamol guvoh bo'lgan. Binobarin, xuddi shu yerda, shu daqiqada o'zining «Avval Vatan keyin jon» she'rini bitib, o'qib bergan edi. Unda:

Kiprik ketar ko'z qolar,
Qolar Vatan jonajon.
Jamoldan shu so'z qolar
Avval Vatan keyin jon!

kabi yuksak tuyg'ular o'z ifodasini topgan. Bu she'rdan ko'rinib turganidek ijodkornini yozish uslubi, darajasi, didi tasvir vositalari o'zgacha bir-birini takrorlamaydigan mazmunan teran satrlar.

Jamol Kamol ijodida o'zi tug'ulib o'sgan joyi Buxoro haqida yozganlarini adog'ini aytib tugatolmaysan. Uning ona shahri Buxoro haqida yozganlarida buyuk bir o'tmish ko'z oldingda gavdalanaveradi. Shu o'rinda Jaloliddin Rumiyning Buxoro haqidagi quyidagi misralarini keltirishni joiz deb bildik:

Buxoro gulshani irfon erur,
Kim buxoriydir, aziz inson erur...

Shoir o'z ustaliklarini shunday xotirlaydi: Mendan ota yurtim Buxoroyi sharif haqida uch-to'rt kalima so'z aytish-imni so'rashdi... Oson ishmi bu? Ammo qancha qiyin bo'lmasin, bu men uchun sharaf va ma'suliyat yurakdan chiqib yurakka borib yetadigan so'z bo'lsin deyishdi.... Xo'sh qanday topaman o'sha so'zni? «Buxoro» deganda avval ko'ngilga, keyin tilga keladigan birinchi so'z, oltin xazinaning kalitini qayoqdan izlay? Bir ovoz qulog'imga shivirlaydi: «Hazrati Rasulloh sallallohu alayhi vassalam hadislarida izla...» Izladim va Allohga shukurki, topdim. Mana o'sha hadis: «Dunyodagi barcha shaharlarga osmondan nur yog'iladi.

Faqat Buxorodan osmonga nur taraladi». Demak, Buxoro deganda dilga va tilga keladigan birinchi so'z-nur! Xo'sh u nechuk nur bo'ldiykin?» Ma'rifat nuri, - deydi o'sha ovoz yana qulog'imga shivirlab, - nuri ma'rifat». Xo'sh ma'rifat degani nima?

Marifat – insonga Alloh ato etgan ne'mat, u ikki unsurdan iborat bo'lib, inson uchun ilm - u adab jamiyat uchun ilmu adolatdir. Ilm o'zini bilish olamni bilish,

Adabiyotlar

1. Jamol Kamol. Umidli dunyo. -T.: «G'afur G'ulom», 1988.
2. Jamol Kamol. Abadiyat ostonasida. 2-jild. -T.: 2018.
3. Jamol Kamol. Asr bilan vidolashuv. -T.: 2018.

Allohni bilish demak. Ya'ni kashfi odam, kashfi olam va kashfi Xudo... Adab esa eng avvalo Allohga e'tiqod va uning zamirida bebaho gavhardek yارقirab turuvchi insof... Insof dini sof. Har balo bo'l lekin insof bilan bo'l deb bejizga aytishmagan axir.

Xo'sh adolatchi? Adolat-qonun ustivorligi qonun hukumronligi buguning iborasi bilan aytganda, qonun diktaturasi... Qonunga katta-kichik barcha beistisno bo'ysunishi kerak. Inson ilmu adabga suyanib kamolga yetsa, jamiyat ilmu adolatga tayanib ravnaq topadi. Buxoroni Buxoro qilgan Buxoroyi sharif qilgan nur - nuri ma'rifatning qisqacha mazmuni ana shundan iborat [2]. Bu fikrlar shoir nazmiga ham ko'chib ajib bir ustivorlikni o'zida mujassam qiladi:

Jannat bog'larida mening orim bor,
Menga nima emish bu bog'i Eram?
Dunyoda seningdek iftixorim bor,
Dunyoda o'zing bor, mening Foxiram!

Shoir kindik qoni tomgan qadim Buxoroni «Jannat bog'larida mening orim bor» - deya tashbeh qilishi bu mu-bolag'a emas albatta. Shoir iftixori.g'ururi sha'ni e'tiqodi barcha barchasi shu yurtda mujassamligini shu satrlarning o'zi yaqqol isbot bo'la oladi:

Ma'rifat atalgan tarkibi asos
O'lmagay, bilmagay so'lish va qarish,
Sening kitobingda bo'ldi sarafroz,
Sening oftobingdan topdi parvarish

Buxoroninig a'zal-azaldan ilm-u adab ilm-u ma'rifat o'chog'i ekanligi ushbu satrlarda mazmunan teran ifodalangan. Ma'rifat hamisha barhayot ekanligi inson ma'rifat bulog'i ila barhayot ekanligini o'z misralarida izohlab bera olgan. Shoir «Haqdan yaralgansan yashaver barhaq, Ey ona Buxoro - jahonga oro» deganida shoir naqadar haq edi. Tarixda necha bor guvoh bo'ganimizdek Buxoro dunyo tamadumining beshigi», «Buxoroyi sharif» deya e'tirof e'tiladi. Buxoro buyuklar yurti Buxoro Naqshbandiy, Buxoriy, Ibn Sino, ma'rifatparvar Abdurauf Fitrat Jamol Kamoldek buyuk shoirlar yurtidir. Shoir o'z she'rini Buxoroning qadimiy nomi «Foxiram» ya'ni faxrim, iftixorim deya izoh berishida ajib ko'tarinki ruh bor.

Jamol Kamol ijodiy merosi ham davr qiyinchiliklarini yenga olgan va shu bilan birga ular bilan yelkama-yelka tura olgan she'riyat. Jamol Kamol ham dunyodagi barcha shoirlar singari insonni qiziqtirgan, inson qalbini to'lqinlantirgan abadiy va azaliy mavzularda qalam tebratdi. Uning lirikasida xalqimiz o'tmish madaniyati va tarixini ulug'lash, buyuk ajdodlarimizdan faxrlanish, ma'naviy-axloqiy muammolar, insoniy dardlar, armonlar, ishq-muhabbat kabi mavzular keng o'rin olgan.

REZYUME

Tarjimonlikda alohida o'ringa ega mohir tarjimon Jamol Kamol Jaloliddin Rumiyning «Ma'snaviyi ma'naviy», Fariddidin Attorning «Ilohiynoma» asari tarjimasi bilan kitobxonlar dilidan alohida o'rin egallagan. Ushbu maqolada shoirning poetik mahorati hamda shoir ijodida qo'lanilgan ma'rifiy g'oyalar talqini bilan yaqindan tanishamiz.

РЕЗЮМЕ

Произведения Жалолиддина Руми «Духовные двестишия» и Фариддина Аттора «Священная книга» в переводе талантливого переводчика Камола занимают достойное место на полках библиотек. В статье приводится анализ просветительских идей в творчестве поэта и описывается мастерство поэта.

SUMMARY

The works “Spiritual couplets” by Jaloliddin Rumi and “The holy book” by Fariddin Attor in the translation of a talented translator Jamol Kamol take an honorable place on the shelves of libraries. The article is devoted to the analysis of enlightening ideas in the creation of the poet and his poetic skill.